

O'ZBEKISTAN RESPUBLIKASI AWIL HAM SUW XOJALIG'I
MINISTRILIGI

TASHKENT MA'MLEKETLIK AGRAR UNIVERSITETI
NO'KIS FILIALI

«AGROINJENERIYA» FAKUL'TETI

«AWIL XOJALIG'IN MEXANIZATSIYALASTIRIW» kafedrası

BAKALAVRIATTIN' 5430100 – AWIL XOJALIG'IN MEXANIZATSIYALASTIRIW
BAG'DARI 4-KURS STUDENTI

AMETOV BAXTIYAR ARSLANOVICHNING

PITKERIW QA'NIGELIK JUMISI

Mavzu: «Chorva fermalarida granulalangan ozuqa tayyorlashning
texnologik liniyasi loyihasi»

Basshi:



doc. Sadıqov R.

«Jumis ko'rip shig'ildi ha'm qorg'awg'a jiberildi»

«Awıl xojalıg'ın
mexanizatsiyalastırıw»
kafedrası baslıg'ı,
____ dots. Utepbergenov B.K.
«__» _____ 2017-jıl

«Agroinjeneriya»
fakulteti dekanı,
____ t.i.k. Allaniyazov S.
«__» _____ 2017-jıl

NO'KIS – 2017j.



TASHKENT MA'MLEKETLIK AGRAR UNIVERSITETI NO'KIS FILIALI

«TASTIYIQLAYMAN»
«Awıl xojalıg`ın mexanizatsiyalastırıw»
kafedrası baslıg`ı
_____ doc. B.K.Utepbergenov
«_____» _____ 2016 j.

5430100 - Awıl xojalıg`ın mexanizatsiyalastırıw bakalavr ta`lim bag`darı studentı
Ametov Baxtiyarning pitkeriw qa`niygelik jumısın orınlaw ushın

T A P S I R M A

Jumıs ataması: «**Chorva fermalarida granulalangan ozuqa tayyorlashning texnologik liniyasi loyihası**»

Bitiruv malakaviy ishi ToshDAU Nukus filiali direktorınıń 5-dekabr` 2016-jıl, № 250- S / 5 sanlı bwyırǵı menen bekitilgen.

Pitkeriw qa`nigelik jumısın qorg`aw mu`ddeti 20-iyun 2017-jıl.

**Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun daslabki ma`lumotlar:** *Ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlarida olingan ma`lumotlar. Texnik-normativlik hujjatlar. Texnikaviy adabiyotlar.*

Kirish. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini asoslash.

I-bop. Hisoblash-tushintirish bo`limi.

I.1. Hisoblash-texnologik qism. I.1.1. *Ozuqalarni granulalab tayyorlashning axamiyati.* I.1.2. *Ozuqalarni granulalashning ijobiy jihatlari va presslarning sinflanishi.* I.1.3. *Granulalash qurilmalari.* I.1.4. *Briketlash qurilmalari.* I.1.5. *Fermer xo`jaligi chorvaci podasi tarkibini aniqlash.* I.1.6. *Ozuqa ratsioni tuzib yillik ozuqa sarfini aniklash.* I.1.7. *Ozukalarga ishlov berish texnologik sxemasini ishlab chikish, mashina va jixozlar tanlash, ko`shimcha jixozlarni hisoblash.*

I.2. Konstruktiv qism. I.2.1. *Granulalangan ozuqa tayyorlovchi qurilma ishlab chiqish.* I.2.2. *Ozuqa va ozuqa aralashmalarini shesternyali ishchi.* I.2.3. *Shesternyali granulyator sxemasi.*

I.3. Hayot faoliyati xavfsizligi qismi. I.3.1. *Fermada miynetti qorg`aw ha`m texnika qa`wipsizligi.* I.3.2. *Ozuqa granulalagich bilan ishlashda texnika xavfsizligi qoydalari..* I.3.3. *Atrof muxit muxofazasi.*

II-bop. Texnik-iqtisodiy bo`limi.

**II.1. Texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlarni hisoblash qism.** II.1.1. *Texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlarni hisoblash*

Xulosalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

4. Maslahatshilar:



1. *Hisoblash-texnologik qismi* _____ doc. R.O.Sadikov
2. *Konstruktiv qismi* _____ doc. R.O.Sadikov
3. *Hayot faoliyati havfsizligi qismi* _____ doc. B.K.Utepbergenov
4. *Iqsodiy ko`rsatkichlar qismi* _____ doc. R.Tlewbergenov

Topshiriqni berilgan vaqti 15. 12. 2016 yil.

Rahbar: _____

Topshiriqni bajarishga oldim 15. 12. 2016 yil.

Talaba: _____



Bitiruv malakaviy ishini bajarishning

K A L E N D A R - T E M A T I K R E J A S I

Ish mavzusi: «**Chorva fermalarida granulalangan ozuqa tayyorlashning texnologik liniyasi loyihasi**»



Talabaning F.I.Sh.: **Ametov Baxtiyar Arslanovich**

Ishni topshirish vaqti: **20-iyun 2017-jil.**

№	Bitiruv malakaviy ishi qismlari	Bajarish vaqti	Bajarilganligi haqida belgi
1.	Kirish	10. 01. 2017	
2.	Ishning mavzusini asoslash	15. 02. 2017	
3.	Hisoblash-texnologik qismi	20. 03. 2017	
4.	Konstruktiv qismi	25. 04. 2017	
5.	Hayot faoliyati havfsizligi qismi	01. 05. 2017	
6.	Iqsodiy ko`rsatkishlar qismi	30. 05. 2017	
7.	Xulosalar va takliflar	05. 06. 2017	
8.	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	10. 06. 2017	

Rahbar _____ sana: 15. 12. 2016 yil.
(imzo)



Talaba _____ sana: 15. 12. 2016 yil.
(imzo)



MUNDARIJA

Varaq

Kirish.....	5
Ishning mavzusini asoslash	7
I-Bop. Hisoblash-tushintirish bo`limi.....	14
I.1. Hisoblash-texnologik qismi	15
I.1.1. Ozuqalarni granulalab tayyorlashning axamiyati.	15
I.1.2. Ozuqalarni granulalashning ijobiy jihatlari va presslarning sinflanishi.	17
I.1.3. Granulalash qurilmalari.	19
I.1.4. Briketlash qurilmalari.	25
I.1.5. Fermer xo`jaligi chorvaci podasi tarkibini aniqlash.	28
I.1.6. Ozuqa ratsioni tuzib yillik ozuqa sarfini aniklash.	29
I.1.7. Ozukalarga ishlov berish texnologik sxemasini ishlab chikish, mashina va jixozlar tanlash, ko`shimcha jixozlarni hisoblash.	33
I.2. Konstruktiv qism.....	41
I.2.1. Granulalangan ozuqa tayyorlovchi qurilma ishlab chiqish.....	42
I.2.2. Ozuqa va ozuqa aralashmalarini shesternyali ishchi.	43
I.2.3. Shesternyali granulyator sxemasi.	46
I.3. Hayot faoliyati xavfsizligi qismi.....	49
I.3.1. Fermada miynetti qorg`aw ha`m texnika qa`wipsizligi.	50
I.3.2. Ozuqa granulalagich bilan ishlashda texnika xavfsizligi qoydalari..	53
I.3.3. Atrof muxit muxofazasi.....	57
II-Bop. Texnik-iqtisodiy bo`limi.....	59
II.1.1. Texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlarni hisoblash qismi.....	60
Xulosalar.....	65
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	66



KIRISH


Respublikamizda chorvachilikni rivojlantirishga har doim e'tibor berilgan. Birinshi Prezidentimiz I.A.Karimovning «2012 – 2016 yillarda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash dasturi» (Prezident qarori 2012 yil 12 may) da, «Shaxsiy yordomichi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi №308, №842 va boshqa qarorlar hamda “Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari” asarida ko'rsatib o'tilgan tamoillarini amalga oshirish o'zining ijobiy natijalarini bermoqda [1-4].

Chorvachilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, mahsulotlar ishlab chiqarishdagi ulushi 46,5 foizga teng, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Sut, go'sht va tuxum mahsulotlari inson organizmiga kerakli bo'lgan barcha hayotbaxsh oziq moddalari bilan ta'minlaydi. Jun, tibit va teri esa sifatli kiyim-kechak hamda oyoq kiyimlar tayyorlashda bebaho xomashyo hisoblanadi.

Respublikamiz aholisini ana shu mahsulotlar bilan to'liq ta'minlash uchun chorva hayvonlarini yuqori sifatli to'liq qiymatli ozuqalar bilan oziqlantirish kerak. Chorvachilikning ozuqaga bo'lgan talabini bajarish uchun ozuqabop ekinlar maydonining chegaralanganini inobatga olib ekinlarining hosildorligini oshirish, ularning intensiv agrotexnologiya-sini yaratish va kuzgi oraliq ekinlar, baxorgi takroriy va yozgi ang'iz ekinlari turlarini ko'paytirish, g'allachilik, sholichilik va boshqa bir yillik o'simliklar chiqindilaridan hamda qo'shimcha ozuqa resurslaridan unumli foydalanish zarur bo'ladi.

Xozirgi kunda ozuqalarni tayyorlashning ratsional uslublaridan biri bu ozuqa ekinlarini sun'iy quritib keyin granulalash hisoblanadi.

Granulalangan ozuqalar o'zining to'yimdorligi bilan kontsentrat ozuqalarga yaqin keladi, karotin miqdori bo'yicha esa ulardan sezilarli ustunligi aniqlangan. 1





kg granulada 0,7...0,8 ozuqa birligi, 39...109 g hazm bo`ladigan protein va 32...100 mg karotin mavjud.

Ozuqalarni granulalash donli ozuqa tayyorlash texnologiyasidan ham ustunlikka ega. Bug`doy donlarini yig`ishtirishda yarmidan ko`proq ozuqa birligi, proteinning uchdan biri saqlanib qoladi, karotin esa deyarli yo`qoladi. Agar bug`doyning dumbulga aylanib ketish fazasida o`rib granula tayyorlanilsa, unda 90% atrofida ozuqa birligi va hazm bo`ladigan protein va taxminan 40% karotinni saqlab qolishga erishiladi [2].

Makkajo`xorining vegetativ davrida massasini (o`zini alohida yoki gorox bilan aralashtirib ekilgan) granulalash, uni silosga yoki donga yig`ishtirishga nisbatan solishtirganda ozuqa birligini 1,5...1,6 marta ko`proq hazm bo`ladigan protein 1,3...1,4 marta ko`proq va karotinni bir necha o`n marta (58...90) ko`proq olish imkonini beradi [3].



Shunday qilib, ko`rib chiqilgan barcha ekinlar bo`yicha ozuqalarni granulalash texnologiyasini qo`llash sezilarli darajada to`yimli moddalarning chiqishini ko`paytiradi. Granulalangan ozuqalarni saqlash davrida to`yimli moddalari barcha ma`lum texnologiyalarga nisbatan yaxshi saqlanadi.

Ozuqalarni granulalash bo`yicha briketlash uslublari va ishchi organlar turlarining ko`pligi vitaminli ozuqalar tayyorlash muommasini echish samarali yo`llarini intensiv qidirish tadqiqotlari olib borilayotganligidan dalolat beradi. Lekin, ularning energiyaga bo`lgan talabi hali xam yuqori ekanligi va bu masalada optimal texnologiya va ishchi organlarni takomillashtirish ishlarini olib borish kerakligini ko`rsatadi. Bitiruv malakaviy ishi qisman ushbu masalani echish masalasiga qaratilgan.



Bitiruv malakaviy ishi mavzusini asoslash

					<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>								
<i>Ulsh</i>	<i>Bar</i>	<i>Hujjat №</i>	<i>Imzo</i>	<i>Sana</i>									
<i>Bajargan</i>		<i>Ametov B</i>			<i>Bitiruv malakaviy ishi mavzusini asoslash</i>				<i>Adab</i>		<i>Varaq</i>	<i>Varaqlar</i>	
<i>Raxbar</i>		<i>Sadikov R.O.</i>										7	8-13
<i>T.konsul.</i>									<i>Tosh DAU Nukus filiali 4^q-qishloq xwjaligini mexanizatsiyalashtirish</i>				
<i>I.konsul.</i>													
<i>Tastiq.</i>		<i>Utepbergenov B.</i>											



Bitiruv malakaviy ishi mavzusini asoslash

Tsilindr valetslar oralig'idan materiallarni zichlab o'tkazishni amalga oishirish valetsli ishchi organlari bilan V.P.Goryachkin, I.A.Dolgov, A.F.Lazebnyy, I.A.Maykovskiy, D.A.Nikolaev va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan [18].


Valetsli ishchi organlar ularning ko'rsatkichlari bo'yicha somon-pichan materiallarini briketga zichlash uchun ishlatiladi. Ammo materialni qamrash va uni zichlashtirish valetslar diametrini katta o'lchamdagi valetslarni yaratish taklif etiladi. Bundan tashqari zichlanib qolgan maydalanmagan materiallarni alohida portsiyalarga taqsimlash ancha qiyinchilik tug'diradi. Ularning ustuvorligi texnologik jarayonni uzluksizligini ta'minlaydi va briketlash uchun nisbiy energiya sarfini kamaytirish. Uzluksiz ishlab chiqarish yangi sinalmagan presslarni sinashda ishlatilishi mumkin.

Matritsali zichlagichlar. Matritsali zichlagichlar Rossiya federatsiyasi va tashqi davlatlarda keng tarqalgan. Ushbu tipdagi presslar bir yoki ko'p matritsali, aylanuvchan (aktiv) va qo'zg'almas (passiv), vertikal yoki gorizontal, halqali va yassi matritsali bo'lishi mumkin. Ozuqalarni presslash uchun matritsali presslar (OPK-2 va OPK-3) sanoatda seriyali chiqarilgan.

N.V.Xilkov (18) ma'lumotlariga ko'ra OPK-2 matritsali pressning nisbiy energiya sarfi 28...30 kVt. soat/kg da $700 - 850 \text{ kg/m}^3$ zichlikda uvalanishi 9 – 14% briketlar olgan. Maksimal massali ish unumi 3000 kg/soatni tashkil etadi.

Mel'nikov S.V. (19) briketning presslash kamerasidan o'tishida ko'p marta kuch bilan ta'sir etishda briketning mustahkamligini ta'minlashga yordam beradi, ammo energiya sarfi ko'payadi.

Matritsali presslar texnologik jarayonni uzluksiz bajaradi. Bu ularning asosiy kuchli tarafi hisoblaniladi. Asosiy kamchiliklari energiya sarfi katta, ozuqalarni ko'proq ishqalashi, ba'zi xollarda olinadigan granula va briket zichligini rostlash mumkin emasligi.



Shunday presslarni loyihalashda asosiy e'tibor matritsa teshigining uzunligini aniqlashga qaratiladi. Qoida sifatida materiyaning briketlanish nuqtai nazaridan uning uzunligi qabul qilinadi. Shu sababli briketlashga oson erishiladigan ozuqalarni (masalan beda) briketlashda briketga ta'sir etish miqdori asossiz ko'tarilib yuborilgan. So'nggi vaqtlarda briketlashda ish unumi 5 *t/soat* granulalashda 1,5 *t/soat* matritsali brekitlar ishlab chiqila boshladi.

1- jadval


Har – xil uslubda zichlashda briketlashning energiya sarfi.

Zichlash uslubi	Energiya sarfi, kVt soat/t	Eslatma
Transporterli pressda chiziqli zichlash	0,375	200 kg/m^3 zichlikgacha (23)
Shtampelli pressda ochiq kamerada zichlash	22,5	Osobov V.I. ma'lumotlari (24)
Matritsali pressda ochiq kanalda zichlash	28...30	Xilkov N.V. Ma'lumotlari (18)
Pishirish uslubida shtampelli pressda ochiq kamerada zichlash (ekstruzli qobiqni suli va qora bug'doy, suli va arpa yormasidan shakllantirish)	10,4...10,6	Larina V.A. ma'lumotlari bo'yicha qizishga energiya sarfini hisobga olmagan holda (25)
Ekstruzli qobiqga pishirish uslubida shnekli briketlagichda zichlash	30...37	Ignatevskiy N.F. ma'lumotlari
Shu jumladan: qizishga energiya sarfi	18...22	

Ozuqalarni granulalash va briketlashda presslash qurilmalarini tadqiqotlarni taxlil qilish shuni ko'rsatadiki, OGM, DG va OPK tipidagi ozuqalarni granulalashda keng qo'llaniladigan qurilmalarni perforotsiya-langani matritsada roller bilan materialni zichlashga asoslangan.

Energiya sarfi yuqoriligi va ish unumi etarli emasligi quyidagilardan kelib chiqqan:

1. Kesimi 40...50 % dan ko'p bo'lmagan matritsa yuzasini bosim ostida ushlab turishdan to'liq foydalanmaslik;
2. Zichlash kanaliga presslash uchun qisilgan materialni press kanaliga surish uchun xaddan tashqari yuqori bosimni hosil qilish;



3. Matritsa teshiklariga material qatlaminig siqish uchun kerak bo'ladigan qo'shimcha sarflar;

4. Matritsa teshiklari orasidagi masofalardan materialni surish uchun katta miqdorda issiqlik chiqarishi.

Vibratsion, zarbali va boshqa presslar. Yuqorida ko'rib chiqilganlardan tashqari, yana ko'plab tadqiqotlar, boshqa presslar va ozuqalarni zichlash uslublari mavjud [13-15].

Ozuqalarni rulonga zichlab, bog'lab, o'rab, briketga zichlab, don chorisiga ekstruzib qobiq tayyorlab briketlab zichlash uslublari ma'lum [19,23 va boshq.].

Tavsiya etilayotgan briketlash ishchi organlar va uslublarning ko'p turiligi vitaminli ozuqa tayyorlash muammosini ko'proq samarali echimini intensiv ilmiy qidirish olib borilayotganligidan dalolat beradi. Ammo ularning energiyaga bo'lgan talabiga xamon kattaligi materiallarni zichlash optimal texnologiyalarini qo'llash va presslar ishchi organlarini takomillashtirish kerakligini ko'rsatadi.


Shesternyali granulyatorlar. Shesternyali granulyatorlar S.V.Mel'nikov kitobida (28) zichlash qurilmalari sinflanishida alohida istiqbolli ya'ni, jarayonni uzluksiz-ligini portsiyali presslash bilan birgalikda bajarilishi imkonini beradigan tip sifatida ajratib ko'rsatilgan.

Tishli g'ildiraklar presslash bilan bir vaqtda eguvchi moment uzatuvchi funktsiya bilan bir vaqtda birgalikda bajaradi.

Tishli ilashish bo'yicha asosiy ma'lumotlar. Tish prifili bo'yicha evolvent va aylana bo'ylab uzatmalar bir-biridan farqlanadi. Evolvent profilni tish Eyler tomonidan 1760 yil tavsiya etilgan va u ko'p tarqalgan. Tishning aylanma profilini M.Ya.Novikov 1954 yil tavsiya etgan. Evolvent profiliga nisbatan u uzatish kuchini ko'tarish imkonini beradi.

Tishli uzatmalar asosiy ustuvorligi: yuqori kuchlanishga chidamligi; katta muddatli va ishi ishonchliligi, uzatish munosabatining domiyiligi, katta dianazokli tezlikda, quvvatda va uzatish munosabatida qo'llash mumkinligi.

Kamchilik sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin: tayyorlash aniqligiga yuqori talablar qo'yilishi, yuqori mustahkamlik talab etilishidir.



Yuqoridagi ko'rsatilgan kamchiliklar tishli uzatmalarning boshqalar nisbatan sezilarli ustuvorligini pasaytirmaydi.



Tishli g'ildiraklar geometriyasi va kinematikasiga tegishli barcha tushunchalar va terminlar standartlashtirilgan. Standartlar, terminlar, aniqlagichlar va belgilashlar hamda geometrik parametrlarni hisoblash uslublarini belgilaydi. «Tishli g'ildirak» termini umumiy hisoblaniladi. Juft tishli g'ildirak va ularning bir-biriga munosabati bo'yicha umumiy tushunchalar to'g'ri tishli g'ildiraklar misolida tushuntirish oson.

Shesternyali granulyatorlarning sinflanishi. Tishli zichlovchi g'ildirakli granulyatorlar G.Ya.Farbman tomonidan ozuqalarga ezish bilan ta'sir etadigan mashinalarga belgilagan. Mavjud tadqiqotlar amalda ishchi organ bitta sxemasida yo'naltirilgan, shu sababli shesternyali granulyatorlar boshqa to'liq sinflanishlar yo'q.

Hozirgi kunda tishli g'ildirakli granulyatorlarga oid bir nechta yangi sxemalar qo'shildi. Qo'shimcha farqli belgilari aniqlandi. Shu sababli presslarni ko'proq to'liq sinflash kerakligi aniqlandi.

Shesternyali presslar farxlanuvchi belgilari bo'yicha, bugungi kungacha ma'lumlarini quyidagicha ta'riflash mumkin.

1. Tishli g'ildirakli presslarni ozuqaga ta'sir etishiga qarab bo'lish mumkin: ezib zichlovchi va shakllantiruvchi.
2. Eguvchi momentni uzatish sxemasi bo'yicha tishli g'ildiraklar presslash va eguvchi momentni uzatish funktsiyalari birgalikda va faqat ozuqalarni presslash funktsiyasi bo'lishi mumkin.
3. Tishli g'ildiraklari bir-biriga joylashishi bo'yicha ikkiga bo'linadi: tashqi va ichki ilashishli.
4. Ozuqaga presslash tishi yuzasining ta'sir etish tavsifi bo'yicha plunjer tipida qisish va parrak tipida qisish turiga bo'linadi. Plunjerli g'ildiraklar ozuqani tish bosh tomoni bilan zichlaydi va parrakli g'ildiraklar ozuqani parrak yon tomoni bilan zichlaydi.
5. Tish profili bo'yicha bir nechta tish yuzalariga bo'linadi.



6. Konstruktsiyasi bo'yicha gorizonta va vertika tishli g'ildirak shesternyali granulyatorlarga bo'linadi.

- bir xil kattalikdagi g'ildirak – matritsali;
- katta g'ildirakli matritsa va kichik zichlovchi g'ildiraklar;
- katta g'ildirakli matritsa va kichik zichlovchi g'ildirakli matritsa;
- kichik g'ildirakli matritsali va katta zichlovchi g'ildirakl.

Ichki ilashish sxemalari ham har-xil;

- passiv tashqi g'ildirak-matritsa va aktiv ichki g'ildirak – matritsa;
- passiv tashqi g'ildirak – matritsa va aktiv ichki zichlash g'ildiragi;
- aktiv tashqi g'ildirak-matritsa va passiv ichki zichlash g'ildiragi;
- aktiv tashqi g'ildirak – matritsa va aktiv ichki zichlash g'ildiragi;

Tish profilini uch turga bo'lish mumkin:



- kinematik standart (evol'vent, gipotsikloida va epitsikloida, novikov aylan profili);
- kinematik nostandart (standartdan bir qiymati bo'yicha farq qiladi);
- nokinematik nostandart (standartdan katta chetga chiqishlar bilan farq

Sinflanishning birinchi alomati mustaqil ahamiyatga ega, boshqa alomatlardan farqli. Ezib zichlovchi presslarga boshqa barcha belgilarni keltirish mumkin. Shakllantiruvchi presslarga tishli g'ildiraklardan faqat zichlash funktsiyalilari kiradi.

Shakllantiruvchi tishli g'ildiraklar uchun ichki ilashish sxemasi qo'llanilmaydi.

Shakllantiruvchi presslar alohida sinfga ajratilgan. Ular ikki kichik sinfchalarga bo'lingan: ozuqani bir va ikki tomonlama zichlash, shu bilan birga birinchisi plunjer yoki parraksimon ozuqaga ta'sir etishi mumkin.

Ezib zichlovchi presslar tishli g'ildiraklari bilan eguvchi momentni uzatish funktsiyasiga nisbatan ikki katta sinflarga bo'lingan.





X U L O S A

1. Sanoat asosida ozuqa etishtirish tizimini tahlil qilish ozuqabop ekinarni eng katta biologik hosil berish fazasida presslash texnologiyasini qo'llashni katta imkoniyatlari borligi aniqlandi, ya'ni ozuqa tarkibidagi oqsil va oqsil-vitaminli qo'shimchalar zichlangan holda uzoq muddatga saqlanadi.

2. Zichlovchi g'ildirakli presslash qurilmalarini farqli ahamiyatli belgilarini tizimli taxlil qilish shesternyali presslarni sinflash printsiplarini aniqlash imkonini beradi. Ishlab chiqilgan shesternyali presslarning sinflanishi ozuqalarni granulalash (briketlash) uchun qurilmalarning texnologik va konstruktiv tavsiflarini konkretlashtirdi va ularni tadqiq qilish yo'nalishlarini aniq belgilab berdi.



3. Shesternyali tishli g'ildirakli granulyatorlar granulani (briketni) shakllantirishda texnologik jarayonning mustahkamligi bilan tavsiflaniladi va bitiruv malakaviy ishini bajarish shesternyali pressni tadqiq qilishga qaratilgan.



I-bob.

Hisoblash-tushintirish bo`limi

					Bitiruv malakaviy ishi									
Ulsh	Bar	Hujjat №	Imzo	Sana										
Bajargan		Ametov B.			Hisoblash-tushintirish bo`limi					Adab		Varaq	Varaqlar	
Raxbar		Sadikov R.O.											14	15-40
T.konsul.										Tosh DAU Nukus filiali 4 ^o -qishloq xwjaligini mexanizatsiyalashtirish				
I.konsul.														
Tastiq.		Utepbergenov B.												



I.1. Hisoblash- texnologik qism

I.1.1. Ozuqalarni granulalab tayyorlashning ahamiyati

Chorvachilikni intensiv rivojlantirishda asosiy muammolardan biri - ozuqa bazasini mustahkamlashdir. Shu bilan birga faqat ozuqalarni etishtirishni kupaytirib qolmasdan ularni saqlash va oziqlantirishga tayyorlash uchun barcha ozuqalar turi sarfini qisqartirish va bir vaqtda energiya sarfini kamaytirish bilan kerakli bazani yaratishdir [5].


Chorva mollarini to'liq qiymatli oziqlantirish deb shunday oziqlantirishga aytiladiki, masalan chorva moli ratsionida organizm normal yashashi va mahsulot etishtirish uchun kerakli barcha to'yimli moddalarni zoti, yoshi, mahsulot berish darajasi va tavsifiga qarab ma'lum bir navbatda olishiga aytiladi.

Asosiy to'yimli moddalar bilan balanslashtirilgan omuxta emlar chorva mollari mahsuldorligini 10...12% ga ko'tarilishini ta'minlaydi, agar ularni vitaminlar, antibiotiklar, mikroelementlar va boshqa vositalar bilan boyitilsa ularning samaradorligi 25...30% va ko'proq ko'tariladi [6].

To'liq ratsionli omuxta emlar, agar ular sochma holda emas balki granulalangan holda tayyorlansa ularning samaradorligi yanada oshadi. Ular chorva mollari tomonidan ishtaha bilan eyiladi va shu bilan birga havoni ifloslaydigan changli qoldiqlar hosil bo'lmaydi.

Granulalangan omuxta emlar qora mollarni oziqlantirishda sezilarli samara beradi: sut bilan oziqlanish davridan so'ng buzoqchalarning o'sish intensivligi 19,7% ga ko'tariladi, har bir kilogramm vazn qo'shishga ozuqa birligi sarfi 16,2% ga kamayadi, shu bilan birga vazn qo'shish tannarxi 11% ga pasayadi [7]. Tovuqlarni granulalangan omuxta emlar bilan oziqlantirganda tuxum qo'yish 15...20% ga ko'tariladi, tuxum og'irligi esa 3,9...9,0% ga yuqori va 10 ta tuxumga omuxta em sarfi 6,9...15,6% ga past bo'ladi. Broylarni boqishda granulalangan omuxta em sarfini 16,5 % ga pastroq [8].

Briketlangan ozuqa tayyorlashda dag'al komponentlar maydalaniladi. Sog'in sigirlar uchun qirqim optimal uzunligi 10...50 mm, boquvdagi novvoslar uchun



10...25 *mm*, qo`ylar uchun 10...15 *mm*. Granulalangan ozuqa tayyorlashda dag komponentlar un holatiga maydalaniladi.

GOST 23513-79 bo`yicha ikki oydan ko`proq muddatga saqlashga qo`yiladigan va keyinchalik ishlov berishga mo`ljallangan briketlar zichligi 700...1200 kg/m^3 oralig`ida bo`lishi, granul va briketlar uvalanib ketishi 12 va 15% dan ko`p bo`lmasligi aniqlangan.


Amaldagi talablarga mos [8] granular diametri 1...7 kunlik jo`jalar uchun – 1...2 *mm*, 7...30 kunlik jo`jalar uchun – 2,2 *mm*, 30 kundan yuqori jo`jalar uchun – 3 *mm*, katta parrandalar uchun – 4...6 *mm*, qo`ylar va buzoqlar uchun – 5...7 *mm*, yirik shoxli mollar uchun – 14...20 *mm*. Yirik shoxli mollar uchun briketlar diametri 30...65 *mm*, to`g`ri burchakli shakldagi briketlar o`lchami 60x50 *mm*. Granula uzunligining diametriga nisbati 3:1.

Oziqlantirishni mexanizatsiyalashtirganda paydo bo`ladigan muammolar: ozuqa komponentlari har xilligi, fizik-mexanik xususiyatlaridagi farqi, chorva mollari yoshi va mahsuldorligiga nisbatan sarflanish me`yoringing doimo o`zgarib turishi, ozuqa turlarining o`zgarishi (bo`rdoqilash boshlanishi va oxirida yoki bahor va kuzlarda) va boshqalar yangi ozuqa tayyorlash texnologiyasi – briketlash va granulalashni tadbiq etish bilan echiladi.

Briketlash va granulalash jarayoni mahsulotga mexanik ta`sir etish bilan amalga oshiriladi. Sochma ozuqalardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ularni presslaydilar. Presslangan ozuqa katta zichlikga, yaxshi sochiluvchanlikka ega bo`ladi va transportabelligi oshadi. Bir joydan ikkinchi joyga o`tkazish va saqlashda isrofgarchilik sezilarli kamayadi.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va amalda sochiluvchan ozuqalarga nisbatan presslangan ozuqalar ustunligi isbotlangan [6]. Presslangan ozuqada uni tashkil etuvchi ingredientlarning o`z-o`zidan saralanishi bo`lmaydi va chorva mollari oziqlanishida tanlashga imkoniyati bo`lmaydi hamda protein o`zlashtirilishi sezilarli, 30...40% yaxshi.

Yuqorida qayd etilganlardan va ko`plab ilmiy tajribalardan kelib chiqib, Respublika sharoitini hisobga olgan xolda presslangan ozuqa tayyorlash



texnologiyasi va kerakli mashina va qurilmalar majmuasini yaratish bo'yicha amaldagi talablarga mos chorva mollari va parrandalar turi va yoshiga mos: diametri 1...7 kunlik jo'jalar uchun – 1...2 mm, 7...30 kunlik jo'jalar uchun – 2,2 mm, 30 kundan yuqori jo'jalar uchun – 3 mm, katta parrandalar uchun – 4...6 mm, qo'ylar va buzoqlar uchun – 5...7 mm, yirik shoxli mollar uchun – 14...20 mm, yirik shoxli mollar uchun briketlar diametri 30...65 mm, to'g'ri burchakli shakldagi briketlar o'lchami 60x50 mm bo'lgan granular tayyorlash uchun resurs va energiya tejamkor takomillashtirilgan mashinalar konstruktiv-texnologik sxemasini ishlab chiqish.



I.1.2. Ozuqalarni granulalashning ijobiy jihatlari va presslarning sinflanishi

Ozuqalarni tayyorlashning ratsional uslublaridan biri bu ozuqa ekinlarini sun'iy quritib keyin granulalash hisoblanadi.

Granulalangan ozuqalar o'zining to'yimdorligi bilan kontsentrat ozuqalarga yaqin keladi, karotin miqdori bo'yicha esa ulardan sezilarli ustunligi aniqlangan. 1 kg granulada 0,7...0,8 ozuqa birligi, 39...109 g hazm bo'ladigan protein va 32...187 mg karotin mavjud [11].

Pichanni quritish, siloslash va donni yig'ishtirishga qaraganda granulalash texnologiyasini qo'llashda tayyor maxsulot chiqishi absolyut hisoblashdan yuqoridir. No'xat bilan aralashtirib ekilgan sulini, dumbul holatga etguncha etishtirib pichan uchun suli yig'ishtirilganda ozuqa birligi va hazm bo'ladigan proteinnning yarmigacha (47 % atrofida) karotinning amalda barchasi (93% atrofida) yo'qoladi. Bular granulalanganda ushbu yo'qotishlar sezilarli past bo'ladi. Agar 1 ga aralash ekinni pichan uchun yig'ishtirishda to'yimli moddalarni 100% deb qabul qilsak, unda granulalashda ozuqa birligi 1,7 marta, to'yimli moddalari 1,8 marta va karotin bo'yicha 8,5 marta ko'tariladi [12].

Ozuqalarni granulalash donli ozuqa tayyorlash texnologiyasidan ham ustunlikka ega. Bug'doy donlarini yig'ishtirishda yarmidan ko'proq ozuqa birligi,



proteinning uchdan biri saqlanib qoladi, karotin esa deyarli yo`qoladi. Ag` bug`doyning dumbulga aylanib ketish fazasida o`rib granula tayyorlanilsa, unda 90% atrofida ozuqa birligi va hazm bo`ladigan protein va taxminan 40% karotinni saqlab qolishga erishiladi [12].

Makkajo`xorining vegetativ davrida massasini (o`zini alohida yoki gorox bilan aralashtirib ekilgan) granulalash, uni silosga yoki donga yig`ishtirishga nisbatan solishtirganda ozuqa birligini 1,5...1,6 marta ko`proq hazm bo`ladigan protein 1,3...1,4 marta ko`proq va karotinni bir necha o`n marta (58...90) ko`proq olish imkonini beradi [13].


Shunday qilib, ko`rib chiqilgan barcha ekinlar bo`yicha ozuqalarni granulalash texnologiyasini qo`llash sezilarli darajada to`yimli moddalarning chiqishini ko`paytiradi. Granulalangan ozuqalarni saqlash davrida to`yimli moddalari barcha ma`lum texnologiyalarga nisbatan yaxshi saqlanadi.

Granulalarni 7 oy va hattoki bir yil saqlagandan keyin ham to`yimli moddalar va proteinning yo`qolishi 10% dan, karotinniki esa 50% dan ko`p bo`lmagan.

Pichan, silos va o`t uni sifatida ozuqalarni 5...7 oygacha saqlashning o`zida protein 20...30 % ga, karotin esa 80% gacha yo`qotishni tashkil qiladi

O`tlarni yuqori haroratda quritishda (optimal rejimni saqlagan holda) protein biologik qiymati oz o`zgarishi, shu vaqtda ozuqalarni tayyorlashning an`anaviy texnologiyasida aminakislotalar, ayniqsa almashtirib bo`lmaydigan darajada sezilarli miqdorda yo`qolishiga olib kelish ahvoli qayd etilgan. Undan tashqari pichan, senaj, silos, tayyorlashda va ularni uzoq muddatli saqlashda karotinning buzilishi bilan birga uning izomerizatsiyalanishi kechadi, ya`ni beta karotin boshqa qiyin o`zlashtiriladigan shakliga o`tadi.

Boshqa ma`lum ozuqa tayyorlash texnologiyalari bilan solishtirganda granulalangan ozuqalarning maxsuldorlikka ta`sir etishi samaraliroqdir. qoramol zotlari aberdin-angus va qizil-cho`l zotlari chatishgan buzoqlarini bo`rdoqiga boqish bo`yicha ilmiy xo`jalik tajribalarini o`tkazgan. Har birining o`rtacha tirik vazni 220...230 kg bo`lgan buzoqlar analog printsipida tanlanib 10 boshdan



guruxlarga bo'lingan edi. Bo'rdoqilash davomiyligi 114 kunni tashkil qilgan. Har xil texnologiyalardan jamg'arilgan lekin bir xil turdagi ekinlardan tuzilgan ratsion bilan oziqlantirilgan mollar tajriba davrida o'sishdi va har xil

rivojlangan. Barcha guruxlarda mollarning semirishi deyarli yuqori – 900 g atrofida bo'lgan. Lekin juda yuqori semirish granulalangan ozuqa sifatidagi ratsion olgan guruxlarda bo'lgan (1020 g). Qoramollarni intensiv boqish ratsionlangan nazorat guruhi bilan solishtirganda tajriba guruxida semirishning ortishi 120 g ($P > 0,95$, $t_d = 1,98$) ni tashkil qilgan hamda granulalangan ozuqalar yaxshi eyilishi bilan farqlangan va semirish yaxshi bo'lganligi qayd etilgan. Agar standart ratsionda 1 kg semirish uchun 9,6 ozuqa birligi kerak bo'lgan bo'lsa, granulalangan ozuqa bilan oziqlantirishda 6,3 ozuqa birligi yoki 32% kam sarflangan.

1 ga ekilgan ozuqa ekinlarini foydalanish hisobida olingan granulalangan ozuqalardan foydalanishda umumiy mahsulot qiymati barcha tajriba guruhlarida sezilarli yuqori granulalangan ko'rinishda ozuqalarni tayyorlash texnologiyasida energiya sig'imi yuqori bo'lishga qaramasdan olingan mahsulot tannarxi past bo'lgan.

Konditsionerlashtirilgan ozuqalar presslanadi va monolitlar hosil bo'ladi. So'ngra presslangan monolitlar qismlarga bo'linadi va o'lchamlariga nisbatan granula yoki briket deyiladi. Amaliyotda aylanma matritsali plunjerli yoki shtempelli va valetsli presslar ko'proq tarqalgan.

Aynan granulalash operatsiyasi ozuqaga ta'sir etish, ya'ni teshikchalardan surib chiqarish, bo'lakchalarni ishqalash bilan olib boriladi, ular operatsiya energiya sig'imini oqlamagan holda ko'taradi.

I.1.3. Granulalash qurilmalari

Ozuqalarni granullash presslari quyidagicha klassifikatsiyalanadi:


- ishchi organlarda presslanish printsipligiga ko'ra - yopiq presslash kameralarida forma hosil qilish mashinalari va presslash jarayoni kechayotgan

kamera devorlariga ishqalanish qarshiligini engish uchun bosim ostida suruvchi mashinalari;

- presslash kuchini tashkil etuvchi ishchi organlarning tipiga ko'ra – plunjerli (shtempelli, shnekli, ponali, shesternyali) va g'ildirakli;

- ishchi organlarning kinematik va konstruktiv xususiyatlariga ko'ra.


Press – granullagichlarni konstruktiv xususiyatlariga ko'ra beshta tipga bo'lish mumkin (1-rasm)



1-rasm. Press – granullagichlarga ishchi organlarining printsipial sxemalari.

1. Forma hosil qilish presslari. Material bir-biriga qarab aylanayotgan ikkita qovurg'ali g'ildirak oralig'idan o'tishida granul hosil bo'ladi. Mahsulot g'ildirak kovaklariga tushganda qizdiriladi va ma'lum geometrik o'lchamdagi granul ko'rinishida chiqadi. Presslash kuchi ta'siri qisqa vaqtli bo'lganligi oqibatida bu tipdagi mashinalrda omixta emdan mustahkam granul olish qiyin. Bundan tashqari, ish unumdorligi past bo'lishi bilan birgalikda elektr eneriyaning solishtirma sarfi yuqori. Bu kamchiliklar plunjerli forma hosil qilish presslriga ham xos xususiyatdir. Shu sababdan ularni omixta emlarni granullashda qo'llanilishi chegaralangan.

2. Shesternyali va tsilindrli presslar. Shesternyali presslarning ishchi organi sifatida tishlashib turgan va bir-biriga qarab aylanayotgan tishli g'ildiraklar




juftligidan foydalaniladi. Material tishlar yordamida g'ildirak asosidagi teshiklar g'aydaladi. Teshiklardan presslanib o'tgan mahsulot qo'zg'almas pichoqlar bilan qirqiladi, granul hosil bo'ladi. Tsilindrli bosim ostida suruvchi presslar butun sirti bo'ylab teshiklar ko'zda tutilgan ikkita tsilindrdan iborat. Ular bir – biriga qarab aylananda material oraliqqa tushadi va teshiklardan bosim ostida o'tib tsilindr ichki tomoniga tushadi, u erda pichoqlar bilan qirqiladi va granul hosil bo'ladi.

3. Shnekli granullagichlar tsilindrli yoki konussimon bo'lib, bir yoki ikki shnekli va shnekning joylashishiga qarab vertikal yoki gorizontallarga bo'linadi. Material shnek bilan aralashtiriladi, qo'shimcha maydalanadi, zichlanadi, qolipga haydaladi va teshikdan bosim ostida suriladi. Chiqayotgan granullar aylanuvchi yoki qo'zg'almas pichoqlarda qirqiladi. Bu presslarda vertikal yoki gorizontall joylashgan tekis va sferik (segmentli) qo'zg'almas qoliplar qo'llaniladi. Shnekli granullagichlar nam holda granul olishda keng foydalaniladi.

4. Tekis gorizontall aylanuvchi qolip presslarda presslash g'ildiraklari bosim ostida zichlashtirilib o'tkaziladi va granul hosil qilinadi. G'ildiraklar tsilindr yoki konussimon bo'lib, aktiv yoki passiv g'ildiraklarga bo'linadi. Qolip va aktiv g'ildiraklar aylanish tezliklari har xil bo'lganligidan ular notekis eiyiladi . Markazdan qochma kuch ta'sirida materiallarning chetki to'planishi bu presslarning kamchiligi hisoblanadi, chunki ishchi yuzaga yuklanish bir tekisda tushmaydi.


5. Halqasimon gorizontall yoki vertikal aylanuvchi qolipli presslar. Aylanuvchi qoliplardagi teshiklardan xom ashyo aktiv yoki passiv g'ildiraklar bilan bosim ostida o'tkaziladi. Bu presslarning muxim jixati qolip va presslovchi g'ildiraklarning tegishli nuqtasidagi chiziqli tezliklari teng, ya'ni sirpanishdan hosil bo'ladigan ishqalanish kuzatilmaydi, bosim kuchi faqat materialni presslashga sarflanadi.

Bugungi kunda halqasimon qolipli g'ildirakli presslagichlar OGM – 0.8 A, OGM – 0.8 B, OGM – 1.5, OGM – 3.0, DG – 1 lar keng tarqalgan bo'lib OGM tipidagilar o't unini, DG – 1 esa omixta emni granullashga mo'ljallangan.



2-rasmda OGM – 0.8 B qurilmasining texnologik jarayoni ko'rsatilgan. Uni AVM – 0.65 R 18 dan quvur 1 orqali qadoqlagich 2 bunkeriga tushadi. Qo'zg'aluvchi 3 unni qadoqlagichga bir tekisda uzatadi, qadoqlagich unni aralashtirish mashinasiga tushishini shnekli aylanishlar chastotasini o'zgartirish bilan rostlanadi. Un qadoqlagichdan chiqishda sig'im 4 dan nasos 5 yordamida kiritish sistemasi va purkagich orqali suv bilan namlanadi. Suv bilan birgalikda antioksidantlar va biriktirish moddalari kiritilishi mumkin. Namlashning bir xilligini va aralashtirishning bir tekisligini kurakli aralashtirgich – konditsioner 7 ta'minlaydi. Aralashtirish mashinasidan o't uni o'z og'irlik kuchi ta'sirida press qabulxonasi 8 ga, u erdan yo'naltiruvchi kuraklar yordamida qolipning ichki sirtiga keltiriladi. Presslash g'ildiraklari qolip 9 ning teshiklaridan unni bosim ostida surib chiqaradi, qo'zg'almas pichoqlar zichlangan mahsulotni qirqib turishidan granullar hosil qilinadi. Ularning harorati 350... 380 K ni tashkil etadi. Shuning uchun ular sovitgich 11 ga yo'naltiriladi. Sovitgich sifatida yon tomonlari va usti yopiq tasmali transportyor 10 dan foydalaniladi. Transportyor tasmasi granullar tashlanadigan turdan tashkil topgan va u orqali tsiklon 17 shamollatgichi havoni so'radi. Havo bilan birgalikda granullanmagan un ham so'riladi, tsiklonda havodan ajratiladi, qayta granullash uchun qadoqlagichga yo'naltiriladi. Sovitish mobaynida granullar namligi 1.5 ... 2 % ga kamayadi va ular talab etiladigan qattqlik, mustaxkamlik, namlik, haroratga ega bo'ladilar.

Sovitgichdan keyin granullar sortlarga ajratish kolonkasi 13 ga tushadi, u erda shamollatgich hosil qilayotgan havo oqimida granullar granullanmagan un va siniqlaridan ajratiladi. Siniq va granullanmagan un tsiklon 17 shamollatgichi yordamida so'rib olinadi, tsiklonga cho'kadi va granullash uchun qadoqlagichga qayta jo'natiladi. Tayyor granullar esa havo yordamida vaqtinchalik saqlash bunker 14 ga tashlanadi yoki xaltalarga joylashtiriladi.



2-rasm. OGM – 0.8B qurilmasi texnologik jarayoni sxemasi:

1 – quvur; 2 – bunker; 3- quzg`atuvchi; 4 - sig`im; 5- nasos; 6- shnek; 7- aralashtirgich-konditsioner; 8- press qabulxonasi; 9- qolip; 10-transportyor; 11- sovitgich; 12, 16 – granullagich; 13- sortlarga ajratish kolonkasi; 14- vaqtinchalik saqlash bunkeri; 15, 17, 18 – tsiklonlar.


OGM-1,5 (3-rasm) qurilmasi, ish printsipi quyidagicha: o`l uni qvur orqali havoda bilan tsiklon 6 ga tushadi. Havodan ajratilgandan keyin .. yuzli zatvor bilan yumshagich bilan jihozlangan bunker 5 ga uzatiladi. Havodan ikkinchi tozalanish tsiklon 7 da amalga oshiriladi. Bunker 5 dan unni bir tekisda shnekli qadoqlagich 4 namlagich 3 orqali aralashtirgich 2 ga uzatiladi. Shnekni aylanishlar chastotasini variator bilan rostlanadi. Qadoqlagich korpusida tiqilib qolganda tozalash uchun eshikcha ko`zda tutilgan.

Qurilmada kurakli aralashtirgich mo`ljallangan. Kuraklar vint yo`li bo`yicha valga  $30^0$  burchak ostida o`rnatilgan. Ishchi organ mahsulotni intensiv aralashtiradi, ko`chiradi va suyuq qo`shimchalarni yutilish uchun qulay sharoit yaratiladi. Presslash kamerasi tiqilib qolganda unni uzatishni to`xtatish uchun aralashtirgich saqlovchi qurilma bilan jihozlangan. Aralashtirgichda un suv yoki bug` bilan nisbiy namligi 14...16% ga etguncha namlanadi. Bundan tashqari melassa va antioksidantlar ham kiritilish mumkin. Namlangan un aralashtirgich –

konditsionerdan qolipga tushadi va g'ildiraklar yordamida radial teshiklarga bosim ostida surib chiqariladi hamda quzg'almas pichoqlar bilan qirqiladi.

Qoliplar almashtiriladigan bo'lib, teshik diametrlari 6, 8, 10, 12 va 16 mm.


Olingan granullar noriya 13 yordamida sovitish kolonkasi 9 ga uzatiladi va tsiklon 8 shamolida sovitiladi. Shu bilan birgalikda tsiklon granul siniqlari va unini so'rib oladi. Ular shlyuzli zatvor orqali bunker 5 ga qaytariladi. Sovitilgan granullar 15^0 burchak ostida prujinalar yordamida sovitish kolonkasi tagiga o'rnatilgan g'alvirga tushadi. G'alvirning yig'ish moslamasi ikkita bug'izdan iborat: granul uchun 11 va siniqlar uchun.



3-rasm. OGM-1,5 qurilmasi texnologik sxemasi.

1-quvur; 2-aralashtirgich - konditsioner; 3-purkagich; 4- shnek; 5- bunker; 6,7,8 – tsiklonlar; 9 – sovitish kolonkasi; 10 – g'alvir; 11, 12 – bug'izlar; 13 – noriya; 14 – qolip.

OGM – 0.8 B qurilmasi ikkita AVM – 0.4 yoki bitta AVM – 0.1 agregati bilan OGM – 1.5 esa bitta AVM – 1.5 bilan texnologik yo'nalish tashkil qiladi.



Namlangan material aralashtirgichdan uzluksiz ravishda shnek bilan olinib press 21 ga yo`naltiriladi. Hosil bo`lgan briketlarning keyingi yo`li granul olish yo`liga mos tushadi.

O`t uni AVM-0,65 agregati unni to`kish tizimidan aralashtirgichga tushadi, u erda u suv yoki bug` bilan granulalash uchun etarli miqdorda namlanadi va intensiv aralashtirgich bilan aralashtiriladi. Aralashtirgichdan namlangan un ta`minlagichga tushadi va zichlashga doimo majburan uzatilib turiladi. Zichlash kamerasida un aylanib turgan matritsa va zichlovchi valetslar bilan matritsa radial teshiklariga bosib kirgaziladi, u erda katta bosim ta`siri orqali granulalar shakllanadi. Zichlangan massa teshikchalardan granula shaklida surib chiqariladi. U erda qo`zg`almas pichoqlarga uchraydi va qirqib tushiriladi. Shakllangan granulalar kojux engi orqali zichlagichdan tushadi.

I.1.4. Briketlash qurilmalari

Ozuqalarni briketlash uchun presslarning quyidagi tiplari qo`llaniladi: shtempli (ochiq va yopiq qolipli), g`ildirakli, halqasimon, shnekli va mundshtukli. Omixta em sanoatida asosan shtempelli tipdagi presslardan foydalaniladi. ular bir – ikki – va to`rtshtempelli bo`ladi. bular ichida bir va ikkishtempelli presslar keng tarqalgan.


To`liq ratsionli briketlarni tayyorlashda shtempelli va halqasimon presslardan foydalaniladi. Shtempelli presslarda sochiluvchan massa qolip teshigida qaytma – ilgarilanma harakatlanadigan shtempel ta`sirida qolip teshigida briket holiga keltiriladi. Qolip teshigi ko`ndalang kesim yuzasi briket formasini aniqlaydi.

Presslanadigan sochiluvchan omixta em yoki to`liq ratsionli omixta ozuqalar elastiklik xususiyatlarga ega. Shuning uchun mustahkam briket olish nisbatan yuqori solishtirma bosim va briketlarni biroz muddatda bosim ostida ushlab turishga bog`liq.

Ochiq qolipli shtempelli presslarda briketlarni bosim ostida ushlab turish vaqti uning qolip teshigidan o`tish tezligi bilan aniqlanadi.

Shtempelli pressda briket hosil qilish jarayonini qarab chiqaylik (4-rasm).

I-holat. Shtempel 1 ning boshlang'ich holatida omixta em yuqoridan qolip teshigi 2 ga uzatiladi. II-holat. Bu holatda presslanadigan material shtempel harakati natijasida qolip teshigiga suriladi va yuqoridagi material teshigi 3 shtempel bilan yopiladi. III-holat. Ozuqadagi havo haydaladi, dastlabki zichlashtirish amalga oshiriladi. Qisish deformatsiyasining o'sishi bilan presslash jarayoni zichlashtirishning solishtirma bosimi ostida kechadi. Briketlanayotgan materialning zichlashib borishi natijasida bosim oldindagi presslangan briketga va hakazo tarzdagi teshikdagi hamma briket tizmasiga uzatiladi. IV-holat. Bunda shtempel teshikda bir tizim bo'lib turgan briketlarni yangi hosil bo'lgan briket qalinligiga teng masofaga suradi. Orqaga qaytishda esa yuklash teshigi 3 ni ochadi va dastlabki holatga qaytadi. Tsikl qaytariladi.




4-rasm. Ochiq qolipli shtempelli tipdagi presslarda briket hosil qilish sxemasi:

1- shtempel; 2- qolip teshigi; 3- ta'minlash qrilmasi.

OPK – 2 komplekti. OPK – 2 har xil omixta ozuqalardan briket va granullar tayyorlashga mo'ljallangan. Buning uchun qolip almashtiriladigan qilingan.briket tayyorlashda teshiklari o'lchamlari 34x34 mm bo'lgan vertikal halqasimon qolip, granullashda esa teshiklari diametrlari 5, 10 va 14 mm li qoliplardan foydalaniladi. Bunda o't uni va unsimon omixtalar granullari maydalangan o't va dag'al ozuqalar

asosidagi omixta oziqlar briketlanadi. OPK-2 ning texnologik sxemasi 5-rasmda keltirilgan.




5-rasm. OPK – 2 qurilmasi texnologik sxemasi:

1- suvni kiritish sistemasi; 2- yuklash transportyori; 3- qadoqlagich; 4-yig'ish bunkeri; 5- o'tkazgich; 6, 12 – shlyuzli zatvorlar; 7, 10, 13 – shamollatgichlar; 8,11 – tsiklonlar; 9- transportyor; 14- quvur; 15 – dastlabki sortlarga ajratish kamerasi; 16, 18- g'alvir; 19-noriya; 20briket transportyori; 21-press; 22-bug' kiritish sistemasi; 23-ta'minlagich.

Quritish agregati yoki omixta em agregatidan kelayotgan granullanishi lozim bo'lgan xom ashyo shnekli transportyor 2 yordamida yig'ish bunkeri 4 ga tashlanadi, undan qadoqlagich 3 ta'minlagich 23 ga uzatadi. O't uni suv yoki bug' bilan namlanadi. Suv qadoqlagichning to'kish bug'ziga, bug' esa bevosita ta'minlagichga etkaziladi.

Namlangan o't uni yoki omixta em ta'minlagichdan press 21 ga tushadi. Tayyor granullar transportyor 20 va noriya 19 bilan sovitish va qoplashga yo'naltiriladi. Granullanilmagan un va granul siniqlari tsiklon 8, o'tkazgich 5 orqali yig'ish bunkeri 4 ga kelib tushadi va qayta granullashga yo'naltiriladi.

Briketlashda quritish agregatidan quvur 14, havo quvuri 11 orqali shamollatgich 10 bilan soʻrib olib tsiklon 11 ga tashlanadi. U erda havodan



ajraladi, cho`kadi va shlyuzli zatvor 12 va transportyor 9 dan o`tib ta`minlagich 2 ga tushadi. Transportyor 9 ning to`kish bug`zida xom ashyoga nasos bilan suv purkaladi. Suv o`rniga quruq bug` ventil 22 orqali bevosita ta`minlagach 23 da foydalanish mumkin.

Namlangan material aralashtirgichdan uzluksiz ravishda shnek bilan olinib press 21 yo`naltiriladi. Hosil bo`lgan briketlarning keyingi yo`li granul olish yo`liga mos tushadi.

1.1.5. Fermer xo`jaligi chorvaci podasi tarkibini aniqlash

Xo`jalikda mollar sonining o`sishi va mahsulot etishtirishni ko`paytirish mahsadida qaytadan podalar to`dasini aniqlaymiz.



Ferma ho`jalik sut yo`nalishi bo`lganligini hisobga olib podalar to`dasini aniqlashda I.1.1-jadvaldan foydalanamiz va hisoblab jadvalga tushiramiz.

Mollar poda tartibi

I.1.1-jadval

№	Mollar turlari	Poda tartibi %	Bosh soni
1	Sog`in sigirlar	55	75
2	G`unajinlar	10	9
3	1 yoshgacha bo`lgan buzoqlar	18	22
4	1 yoshdan katta buzoqlar	17	21

Xammasi bulib umumiy mollar tarkibi 100 bosh.



I.1.6. Ozuqa ratsioni tuzib yillik ozuqa sarfini aniklash

Fermer xo`jaligidagi qoramollar turlari, soni va ularning to`yimli moddalarga bo`lgan talabi.

I.1.2-jadval

№	Mollar turlari	Bosh soni	To`yimli moddalarga bo`lgan talabi.	
			Ozuqa birligi	Xazm buladigan protiin, g
1	Sog`in sigirlar	75	10.0	1080
2	G`unajinlar	9	7.6	770
3	1 yoshgacha bo`lgan buzoqlar	22	3.2	330
4	1 yoshdan katta buzoqlar	21	4.4	450

Fermer xo`jaligidagi etishtiriladigan va ko`shimcha olanadigan ozuqalar turlari va ularning to`yimdorligi.

I.1.3-jadval

Ozuqa turlari	Ozuqalar nomlari	1 kg ozuqa to`yimdorligi	
		Ozuqalar bo`yicha	Xazm buladigan protiin, g
Dag`al ozuqalar	Beda pichani	0.47	92
	Bo`g`doy somoni	0.21	5
Sersuv shirali ozukalar	Makka silosi	0.16	15
	Xashaki lavlagi	0.11	9
Kontsetrat ozuqalar	Makka doni	1.24	72
	Bo`g`doy doni	1.06	85
	Paxta kunjarsi	0.97	315

Sogin sig`irlar uchun ratsioni.

I.1.4-jadval

Ozuqalar nomlari	Sutkalik berilishi, <i>kg</i>	1 <i>kg</i> ozuqa to'yimdorligi	
		Ozuqalar bo'yicha	Xazm buladigan protiin, <i>g</i>
Beda pichani	5	2.35	460
Bo'g'doy somoni	6	1.26	30
Makka silosi	8	1.26	120
Xashaki lavlagi	6	0.66	54
Makka doni	2	2.48	144
Bo'g'doy doni	1	1.06	85
Paxta kunjarsi	1	0.97	315
Jami		10.2	1154
Talab bo'yicha		10.0	1080

Gunajinlar uchun ratsioni.

I.1.5-jadval

Ozuqalar nomlari	Sutkalik berilishi, <i>kg</i>	1 <i>kg</i> ozuqa to'yimdorligi	
		Ozuqalar bo'yicha	Xazm buladigan protiin, <i>g</i>
Beda pichani	4	1.88	368
Bo'g'doy somoni	10	2.1	50
Makka silosi	6	0.96	90
Xashaki lavlagi	10	1.16	90
Makka doni	0.5	0.62	36
Bo'g'doy doni	0.5	0.53	43
Paxta kunjarsi	0.5	0.49	158
Jami		7.68	835
Talab bo'yicha		7.6	770

1 yoshgacha bo'lgan buzoqlar uchun ozuqa ratsioni.


I.1.6-jadval.

Ozuqalar nomlari	Sutkalik berilishi, kg	1 kg ozuqa to'yimdorligi	
		Ozuqalar bo'yicha	Xazm buladigan protiin, g
Beda pichani	2	0.94	184
Makka silosi	4	0.64	60
Xashaki lavlagi	4	0.44	90
Makka doni	0.4	0.5	29
Bo'g'doy doni	0.3	0.32	23
Paxta kunjarsi	0.3	0.29	35
Jami		3.13	481
Talab bo'yicha		3.2	350

1 yoshdan katta bo'lgan uchun ozuqa ratsioni

I.1.7-jadval

Ozuqalar nomlari	Sutkalik berilishi, kg	1 kg ozuqa to'yimdorligi	
		Ozuqalar bo'yicha	Xazm buladigan protiin, g
Beda pichani	3	1.41	276
Bo'g'doy somoni	6	1.26	30
Makka silosi	6	0.96	90
Xashaki lavlagi	6	0.66	54
Makka doni	0.5	0.62	36
Bo'g'doy doni	0.5	0.53	46
Paxta kunjarsi	0.3	0.29	95
Jami		5.73	624
Talab bo'yicha		5.8	540




Fermaning sutkalik ozuka sarfi yigma jadvali.

I.1.8-jadval



№	Mollar turi	Bosh soni	O z u q a l a r n o m l a r i						
			Beda pichani	Bo`g`doy somoni	Makka silosi	Xashaki lavlagi	Makka doni	Bo`g`doy doni	Paxta kunjarsi
1	Sog`in sigirlar	75	5/375	6/450	8/ 600	6/225	2/150	1/75	1/75
2	G`unajinlar	9	4/36	10/90	6/53	10/90	0.5/0,45	0.5/0,45	0.5/0,45
3	1 yoshgacha bo`lgan buzoqlar	22	2/44		4/40	4/40	0.4/4	0.3/3	0.3/3
4	1 yoshdan katta buzoqlar	21	3/63	6/126	6/126	6/126	0.5/11,5	0.5/11,5	0.3/0,63
	Jami bir sutkasida, ts.		4.12	5.72	6.92	5.96	1.382	0.772	0.74
	Jami qishki fasl uchun		638.6	886.6	1072.6	923.8	214.21	119.66	114.7
	Jami T.N. +10% straxovka		64	89	107	92	22	12	11.5



1.1.7. Ozuqalarga ishlov berish texnologik sxemasini ishlab chikish, mashina va jixozlar tanlash, ko`shimcha jixozlarni hisoblash

Ozuqalarning oziqlantirishlar bo`yicha taxminiy taqsimlanish.



I.1.9-jadval

Oziqlantirishlar	Ozuqa turlari	Sutkalik ratsiondan fayiz
Ertalabki oziqlantirish soat 6 dan 7 gacha	Dag`al ozuqa	50
	Sersuv shirali ozuqa	20
	Kontsentratsion ozuqa	50
Kundizgi oziqlantirish soat 13 dan 14 gacha	Dag`al ozuqa	-
	Sersuv shirali ozuqa	60
	Kontsentratsion ozuqa	-
Kechki oziqlantirish soat 20 dan 21 gacha	Dag`al ozuqa	50
	Sersuv shirali ozuqa	20
	Kontsentratsion ozuqa	50

Ozuqalarning oziqlantirishlar bo`yicha tavsayalar taqsimlanishi.

I.1.10-jadval

Ozuqalar	Ertalabki oziqlantirish	Kundizgi oziqlantirish	Kechki oziqlantirish
Beda pichani	319,3		319,3
Bo`g`doy somoni	443,3		443,3
Makka silosi	214,52	643,56	214,52
Xashaki lavlagi	184,76	554,28	184,76
Makka doni	107,105		107,105
Bo`g`doy doni	59,83		59,83
Paxta kunjarsi	57,35		57,35



Ozuqalarga ishlov berish sxemasi

1. *Somon* Qabul qilish → maydalashga uzatish → maydalash → bug'lashga →
→ uzatish → bug'lash → aralashtirish → tarqatish.

2. *Lavlagi* Qabul qilish → yuvishga uzatish → yuvish → maydalashga uzatish →
→ maydalash → aralashtirish uzatish → aralashtirish →
→ tarqatish.

3. *Aralashma em.* Donlarni qabul qilish → maydalash → aralashtirish → saqlash →
→ me'yorlash → aralashtirish uzatish → aralashtirish → tarqatish.

4. *Paxta kunjarasi* Qabul qilish → saqlash → me'yorlash → aralashtirish uzatish →
→ aralashtirish → tarqatish.

Asosiy (bazoviy) zveno hisobi

Ozuqa tseida bir marta ishlov beriladigan ozuqalar miqdori.



1. *Somon* $G_{\text{som}} = 443,3 \text{ kg}$.
2. *Lavlagi* $G_{\text{lav}} = 184,76 \text{ kg}$.
3. *Donlar* $G_{\text{don}} = 166,935 \text{ kg}$.
4. *Paxta kunjarasi* $G_{\text{kun}} = 57,35 \text{ kg}$.

Hisoblash oziqlantirishlari ichida eng kup ozuqaga ishlov beriladigan tanlanadi. Bizning misolimizda ertalabki va kechkurin. Shuning uchun ertalabki oziqlantirishni kabul qilamiz.

Ozuqalarga ishlov berish mashinalari ichida bo'g'lagich-aralashtirgich asosiy zveno hisoblanadi. Chunki xamma ozuqalar undan iyg'iladi, ishlov beriladi va tukiladi.

Unda aralashtirgich bajaridigan tsikllar sonini topamiz. Bu erda bir tsikl bir marta aralashtirgichni ozuqalar bilan tuldurib ishlov berib, tukishga aytiladi.

$$n_y = \frac{\sum_{i=1}^n V_i}{V_{c-2} \cdot \varphi} = \frac{V_{\text{som}} + V_{\text{lav}} + V_{\text{don}} + V_{\text{kun}}}{V_{c-2} \cdot \varphi}$$



Bu erda: $\sum_{i=1}^n V_i$ -ozqa tsexida 1 marta ishlov beriladigan ozuqalar xajmi;

V_{c-2} - S-2 bug`lagich arlashtirgich xajmi, m³;

φ - S-2 to`kish koeffitsenti ($\varphi = 0,95$).

Somon xajmi

$$V_{com} = \frac{G_{com}}{\gamma_{com}} = \frac{0,4433}{0,25} = 1,7732 \text{ m}^3$$

Lavlagi xajmi

$$V_{lav} = \frac{G_{lav}}{\gamma_{lav}} = \frac{0,1847}{0,65} = 0,29 \text{ m}^3$$

Donlar xajmi

$$V_{don} = \frac{G_{don}}{\gamma_{don}} = \frac{0,1669}{0,5} = 0,333 \text{ m}^3$$

Paxta kunjarasi

$$V_{kun} = \frac{G_{kun}}{\gamma_{kun}} = \frac{0,0573}{0,3} = 0,191 \text{ m}^3$$

Unda tsikllar soni

